



**SIRDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**


*2023- YIL YANVAR OYI*




## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar oyida)

2023- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1009,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 102,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 63,4 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 21,2 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,01 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2022- yil

B

0,3 %


2023- yil

B

0,01 %

Yanvar

### Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 364,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 36,2 % ni tashkil etdi.


2022- yil yanvar

41,0 %

2023- yil yanvar

36,2 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,5 % ni (2022- yilning yanvar oyida – 3,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,3 % (2,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,7 % (21,8 %) va quyi texnologiyali – 82,5 % (72,2 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 2,5 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 75,3 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 11,0 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 75,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,9 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 33,8 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,5 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 27,8 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**  
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da \*


**Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa**




**Kepak**




**Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar**



**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Sellyuloza**




\* Yanvar oyi yirik korxonalar bo‘yicha


**Aroq**




**Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar**




**Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar**




**Paxta tolasi**



**Paxta chigiti**



**Kalava ip**




2023- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 0,7 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan 61,7 % ga kamaygan), 0,06 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (261,5 % oshgan) hamda 3,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (37,9 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	1815	1105	-710
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	17,7	63,8	46,1
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	1,8	0,7	-1,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	5,6	3,5	-2,1
Paxta tolasi, ming t.	2,5	2,3	-0,2

### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 14,7 % ga kamaygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,1 % gacha kamaydi, fizik hajm indeksi esa, 50,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 0,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 24,8 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 40,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 76,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,1 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 123,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 47,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 46,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 123,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 6,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 143,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 107,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,4 %, fizik hajm indeksi 116,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 23,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.







### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 10,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 99,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 64,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 75,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 9,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 168,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 13,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 640,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 63,4 %) ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 21,2 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1723,0	1829	106
Issiqlik energiyasi, ming gkal	20,7	15,8	-4,9

yanvar oyi yirik korxonalar bo'yicha

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 %) ni tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	3,8	2,4	-1,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	1,3	1,3	0,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 99,7 % ga pasaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 23,7 % ga pasayish kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 154,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil  
yanvar

66,7%

2023- yil  
yanvar

71,8%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil  
yanvar

33,3%

2023- yil  
yanvar

28,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2022- yil yanvar oyida 250,0 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 21,3 % , Guliston shahri 20,7 % , Sayxunobod tumani 13,4 % hamda Xovos tumani 9,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahri , Boyovut tumani , Xovos tumani hamda Oqoltin tumanida qayd etildi.